


**SAMARQAND VILOYATINING
CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI**


(2019 yil yanvar-mart*)

2019 yilning yanvar-mart oylarida, viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 2646,1 mlrd. so`mni tashkil etib, o`tgan yilning shu davriga nisbatan 5,7 % ga o`sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 317,4 mlrd. so`mni (o`sish sur`ati 128,5%), kichik tadbirkorlik sub`ektlarining tovar aylanmasi 2328,7 mlrd. so`mni (o`sish sur`ati 103,2%), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 332,7 mlrd. so`m (o`tgan yilning shu davriga nisbatan 98,8%)ni tashkil etdi.

**Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi hajmi
(mlrd. so`m)**

2018 yilning shu davriga nisbatan viloyatning barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining o`sish sur`atlari kuzatilib, nisbatan yuqori o`sish sur`atlari Samarkand shahri, Urgut, Tayloq va Oqdaryo tumanlarida qayd etildi.

*-dastlabki ma'lumot


Chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari, (%)


Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 28,5% ga o'sdi va 317,4 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 12,0% ulushiga to`g'ri keldi.


Kichik tadbirdorlik sub`ektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, 2328,7 mlrd. so'mni tashkil etib, 2018 yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 3,2% ga o'sdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 88,0 %ga teng kelmoqda.

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi, (%)

2018 yil yanvar-mart




2019 yil yanvar-mart



Йирик корхонalar
 Кичик тadbirkorlik

**Chakana savdo aylanmasida
yirik korxonalar va kichik tadbirkorlikning ulushi, (%)**




Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik tadbirkorlik sub`ektlarining ulushi bo'yicha Nurobod (99,9%), Bulung'ur (99,8%), Tayloq (99,8%), Kattaqo'rg'on (99,8%) va Narpay (99,7%) tumanlari yetakchilik qilmoqda.

Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 12,0% ni tashkil etib, eng katta ulush Samarqand shahrida (30,7%), Samarqand tumanida (38,1%) va Pastdarq'om tumanida (5,1%) kuzatildi.


**Kichik tadbirkorlik va yirik korxonalarning
chakana savdo tovar aylanmasidagi hajmi**

Hudud nomi	Yirik korxonalar (mlrd.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Kichik tadbirkorlik (mlrd.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
Samarqand viloyati	317,4	128,5	2328,7	103,2
Samarqand shahri	239,1	145,0	540,2	95,6
<i>Kattaqo'rg'on shahri</i>	0,48	118,2	122,5	104,8
<i>Tumanlar:</i>				
Bulung'ur	0,26		132,9	104,4
Jomboy	0,33		90,6	105,1
Ishtixon	0,56		118,6	103,7
Kattaqo'rg'on	0,27		125,0	105,4
Narpay	0,28		92,4	104,2
Nurobod	0,15		101,4	105,6
Oqdaryo	0,62		63,5	105,7
Payariq	0,59		113,1	104,9
Pastdarg'om	9,07	51,6	168,6	110,0
Paxtachi	0,44		84,2	102,8
Samarqand	58,23	92,2	94,4	116,0
Tayloq	0,17		77,7	107,4
Urgut	6,6	6,7M	323,9	104,1
Qo'shrabot	0,2		79,7	104,7

Hududlarda kichik tadbirkorlik sub`ektlarining viloyat chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi, (%)


Chakana savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan Samarqand shahri 29,5%, Urgut tumani 12,5%, Pastdarg'om tumani 6,7%, Bulung'ur tumani 5,0%, Kattaqo'rg'on shahri 4,6%, Samarqand tumani 5,8%, Ishtixon tumani 4,5%, Kattaqo'rg'on tumani 4,7% va Paxtachi tumani 3,2% chakana savdo tovar aylanmasining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Chakana savdo tovar aylanmasida tumanlarning ulushi, (%)



2019 yil yanvar-mart oylarida chakana savdo tovar aylanmasi viloyat bo`yicha aholi jon boshiga 695,2 ming so`mni tashkil qilib, o`tgan yilning shu davriga nisbatan 3,5% ga ko`paydi. Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 2019 yilning yanvar-mart oylarida o`tgan yilga nisbatan viloyatning ayrim hududlarida o`sish ko`rsatkichlarini tashkil etib, eng yuqori ko`rsatkichlar Kattaqo'rg'on shahri (1395,7 ming.so`m), Samarqand shahri (1445,2 ming. so`m) va Bulung'ur tumani (727,1 ming.so`m) hissasiga to`g`ri keldi.

Shuningdek, aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi bo`yicha eng kam ko`rsatkichlar Tayloq (396,7 ming.so`m), Oqdaryo (411,9 ming so`m) va Payariq (464,7 ming.so`m) tumانларидаги саломат таовари ташкилларидан туради. Ушбу ко`rsatkich viloyat hududlari kesimida quyidagicha ko`rinish olgan:

Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi

Hududlar nomi	Ming so`m	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
Samarqand viloyati	695,2	103,5
Samarqand shahri	1445,2	105,0
Kattaqo'rg'on shahri	1395,7	103,5
<i>tumanlar:</i>		
Bulung'ur	727,1	102,3
Jomboy	541,4	102,7
Ishtixon	480,1	101,8
Kattaqo'rg'on	468,3	103,5
Narpay	443,5	102,7
Nurobod	689,3	103,5
Oqdaryo	411,9	104,8
Payariq	464,7	103,1
Pastdarg'om	512,5	101,8
Paxtachi	597,8	101,3
Samarqand	618,8	103,4
Urgut	666,7	103,2
Tayloq	396,7	105,3
Qo'shrabot	622,0	102,7

2019 yilning yanvar-mart oylari mobaynida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 2,2% ni tashkil etib, 59,0 mlrd. so`mga yetdi, yoki o`tgan yilning mos davriga nisbatan 2,2% o'sishga erishildi. Bunda jami savdo aylanmasining 97,1% ulushi kichik tadbirkorlik sub`ektlari ulushiga to`g`ri kelmoqda.


SAMARQAND VILOYATINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

(2019 yil yanvar-mart*)

Joriy yil boshidan viloyat bo'yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi 1057,4 mlrd. so'mni tashkil qildi va 2018 yilning shu davriga nisbatan 0,4% ga o'sdi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik tadbirkorlik sub`ektlariga to`g`ri kelib, mazkur hajm 2019 yil yanvar-mart oylari yakunlariga ko`ra 658,2 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 83,6% ni tashkil etdi. Ushbu sektorning umumiy ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi esa 62,2% ni tashkil qilmoqda. Yirik korxonalar esa, 399,2 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 49,9% ga o'sdi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yirik va kichik korxonalarning ulushi, (%)



*-dastlabki ma'lumot

Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi
Tel.:71-230-85-23
66-235-65-80